

AYOLLAR VA YOSHLARNI HUDUDDA YASHIL IQTISODIY
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA O'QUV
MARKAZLARINING ROLI

Rustamova Gulbaxor Nasretdinovna

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,

Samarkand viloyat xududiy filiali bosh mutaxassisi

gulbahorrustamova333@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ayollar va yoshlarning o'rni, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda hududiy o'quv markazlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Gender va yoshga moslashtirilgan o'quv dasturlarining tadbirkorlik faolligini oshirishdagi ta'siri, ekologik biznes modellarini o'zlashtirish jarayoni, raqamli ko'nikmalar, moliyaviy savodxonlik va "yashil startaplar"ni rivojlantirishga qo'shgan hissasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'quv markazlari faoliyati barqaror yashil iqtisodiyot siyosatini qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, ayollar tadbirkorligi, yoshlar siyosati, gender yondashuv, o'quv markazlari, ekologik biznes, yashil startaplar, raqamli savodxonlik, barqaror rivojlanish.*

Annotation: *The article analyzes the role of regional training centers in preparing women and youth for green economic entrepreneurship in Uzbekistan. It examines the effectiveness of gender- and age-sensitive training programs in enhancing entrepreneurial activity, developing ecological business models, improving digital and financial literacy, and promoting green start-ups. The findings show that training centers significantly contribute to the development of sustainable green economy policies and inclusive human capital formation.*

Keywords: *green economy, women's entrepreneurship, youth policy, gender approach, training centers, ecological business, green start-ups, digital literacy, sustainable development.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat va jamiyatni taraqqiy toptirishda ularning faolligini oshirish, bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, gender tengligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda "O'zbekiston-2030" strategiyasi ijrosini ta'minlash maqsadida umuminsoniy – demokratik tamoyillarga tayangan holda tazyiq va zo'ravonlikni bartaraf etish, erta turmush, erta tug'ruq va qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohning oldini olish, intellektual salohiyatlari, tajribalari bilan oila va yurt ravnaqi, xalq manfaati yo'lida chinakam fidoyilik harakatlariga undovchi imkoniyat va imtiyozlar o'zining ijobiy natijalarini beradi.

“2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” qabul qilingan. Mazkur yo‘nalishda Respublika, vazirlik, hududlar va idoralarda komissiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida oila va ayollar masalalari bo‘yicha tashkil etilgan qo‘mitalarning milliy davlatchilik siyosati ijrosini ta‘minlashda o‘ziga xos yangilik bo‘ldi.

Shuningdek, yangi mexanizm — “Ayollar daftari” hamda uni yuritishning “mahallabay”, “xonadonbay” vertikal tizimi yo‘lga qo‘yilishi, ehtiyojmand ayollarga uy-joy berilishi, iqtidorli qizlarning o‘qishi uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, oiladagi tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurashish borasidagi amaliy ishlar har bir ayol baxtli bo‘lishga, jamiyatda o‘z o‘rnini topib, munosib hayot kechirishga haqli, degan insonparvarlik g‘oyasini yuzaga chiqardi. Ayollarga e‘tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. E‘tirof etish kerak, so‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. O‘zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘shildi. Bunda “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Jeneva Konvensiyasi, “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin- qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Nyu-York Konvensiyalari, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to‘ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqidagi” Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. GENDER (ing. gender – urug‘) – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim hamda ilm- fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. Erkaklar va ayollar teng huquqliligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanadi. Gender statistikasini shakllantirish – Davlat statistika organlari gender ko‘rsatkich- lari asosida jamiyat hayotining barcha soha- larida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig‘ishni, unga ishlov berishni, uni to‘plashni, saqlashni, tahlil qilishni va e‘lon qilishni amalga oshiradi. O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiy tadbirkorlikning gender va yosh o‘ziga xosliklari shundaki, Ayollar ekologik tadbirkorlikka yuqori qiziqish bildiradi, ayniqsa: qayta ishlash (plastik, tekstil chiqindilari), ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish, uy-mehnatga asoslangan yashil xizmatlar, energiya tejovchi texnologiyalar bo‘yicha kichik bizneslarda. Biroq qaror qabul qilishdagi gender tafovutlari, moliyalashtirishdagi tengsizlik va axborot yetishmasligi ularning imkoniyatlarini cheklaydi. Yoshlar omilida Yoshlar innovatsiya va startaplar bozorida eng faol qatlam bo‘lib, ular orasida: IT asosidagi ekologik platformalar, aqlli irrigatsiya tizimlari, chiqindini saralash ilovalari, “eko-logistika” startaplariga qiziqish yuqori. Ammo ko‘pchilik yoshlar uchun: biznes boshqaruvi, marketing, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha ko‘nikmalar yetishmaydi. O‘quv

markazlarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni shundaki Malaka oshirish va kasbiy tayyorlov jarayonida O'quv markazlari quyidagi sohalarida o'quv modullarini joriy etmoqda: "Yashil texnologiyalar asoslari", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: amaliyot va biznes", "Ekologik marketing va eko-branding", "Yashil loyihalarni boshqarish".

Bu kurslar ayollar va yoshlar uchun amaliy mashg'ulotlar bilan boyitilgan. 3.2. Moliyaviy va raqamli savodxonlikni oshirish Ko'plab markazlar quyidagi yo'nalishlarda treninglar o'tkazmoqda: onlayn savdo (marketplace), elektron to'lov tizimlari, "yashil moliyalashtirish" (grants, soft-loans), startup loyihalarini yozish. Mentorlik va inkubatsiya xizmatlarida O'quv markazlari hududlarda: biznes-reja tuzish, ekologik ta'sirni baholash, bozorga kirish strategiyasi, innovatsion g'oyalarni ekspertlar bilan muhokama qilish kabi xizmatlarni taklif qilmoqda.

O'zbekiston so'nggi yillarda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yashil iqtisodiyotni jadal rivojlantirmoqda. "Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha milliy strategiya – 2030"da qayd etilishicha, energiya tejamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik tadbirkorlik va resurslarni tejash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur jarayonda ayollar va yoshlar hisslari juda muhim bo'lib, ularni zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantirish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Hududlarda faoliyat yuritayotgan o'quv markazlari (monomarkazlar, kasb-hunar maktablari, "Ishga marhamat" markazlari, nodavlat ta'lim markazlari) yoshlar va ayollarning yashil iqtisodiyot asoslari bo'yicha bilim va kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy infratuzilma hisoblanadi. Bugungi kunda masalan: Samarqand viloyati O'zbekistonning iqtisodiy, ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo'lib, hududda ayollarni yashil iqtisodiy tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha samarali amaliyotlar shakllangan. Viloyatda ayollar miqdori umumiy aholi tarkibining yarmidan ko'pini tashkil qilgani bois, ularni ekologik biznes, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik xizmatlar sohalarida tayyorlash strategik ahamiyatga egadir. O'quv markazlari faoliyatida Samarqanddagi "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunar maktablari va nodavlat o'quv markazlari ayollar uchun maxsus modullarni joriy etgan. Ularga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yilgan: Qayta tiklanuvchi energiya asoslari (quyosh panellari uchun kichik biznes) Ekologik qadoqlash va organik mahsulotlar ishlab chiqarish Chiqindilarni saralash va qayta ishlash orqali daromad toppish Yashil xizmatlar: ekologik tozalash, eko-dekor, eko-hunarmandchilik kabi kurslarda ishtirokchilarning 60–70 foizini ayollar tashkil qiladi.

Xulosa: Ayollar va yoshlarni yashil iqtisodiyotga tayyorlash O'zbekiston barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismidir. Hududiy o'quv markazlari bu jarayonda asosiy drayverga aylanmoqda. Gender va yoshga moslashtirilgan o'quv dasturlari: tadbirkorlik faolligini oshiradi, bozor talabiga mos yangi ko'nikmalarni shakllantiradi, ekologik biznesga qiziqishni kuchaytiradi, yashil startaplar sonini ko'paytiradi. Shu bois o'quv markazlari infratuzilmasini modernizatsiya qilish, metodik materiallarni kengaytirish va xalqaro tajribani joriy etish milliy yashil iqtisodiyot siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Narbaeva T. O'zbekistonda xotin-qizlarini ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli. Monografiya. – Toshkent. 2020.
2. Narbaeva T.K., Egamberdieva N.M., Saydivalieva X.X., Alimov S.K., Genderga oid audit o'tkazish metodologiyasi. Uslubiy qo'llanma. "Mahalla va oila" nashriyoti. – Toshkent: 2023. -128 b.
3. Narmanov U. Ayollar bandligi orqali gender tenglikni ta'minlash va iqtisodiy faolligini oshirish omili sifatida // Iqtisodiyot va ta'lim. - 2020. - № 6, - B. 8.
4. Suyunov D. X. Corporate governance mechanism: problems and solutions. Monograph // T.: Academia. – 2007. - T. 200.
5. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies. Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
6. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them // EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.
7. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them // EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.
8. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 12. – S. 209-218. tyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. state regulation of digital transformation of the economy / / American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.
9. D X Suyunov, N K Ėrmatova. Sifrovaya transformatsiya protsessov upravleniya personalom v kommercheskom banke. Journal of new century innovations 43 (4), 75-78.